E-ISSN 2181-1466
9 772181 146004

ISSN 2181-6875
9 772181 687004


@buxdu_uz @buxdu1 @buxdu1 www.buxdu.uz

Научный вестник Бухарского государственного университета
Scientific reports of Bukhara State University

7/2023

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTI



7/2023

https://buxdu.uz

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI
SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК БУХАРСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА

Ilmiy-nazariy jurnal
2023, № 7, avgust

Jurnal 2003-yildan boshlab **filologiya** fanlari bo‘yicha, 2015-yildan boshlab **fizika-matematika** fanlari bo‘yicha, 2018-yildan boshlab **siyosiy** fanlar bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo‘lgan zaruruiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2000-yilda tashkil etilgan.
Jurnal 1 yilda 12 marta chiqadi.

Jurnal O‘zbekiston matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2020-yil 24-avgust № 1103-sonli guvohnoma bilan ro‘yxatga olingan.

Muassis: Buxoro davlat universiteti
Tahririyat manzili: 200117, O‘zbekiston Respublikasi,Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko‘chasi, 11-uy.
Elektron manzil: nashriyot_buxdu@buxdu.uz

TAHRIR HAY’ATI:

Bosh muharrir: Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Bosh muharrir o‘rinbosari: Rasulov To‘lqin Husenovich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor
Mas’ul kotib: Shirinova Mexrigiyo Shokirovna, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Kuzmichev Nikolay Dmitriyevich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor (N.P. Ogaryov nomidagi Mordova milliy tadqiqot davlat universiteti, Rossiya)
Danova M., filologiya fanlari doktori, professor (Bolgariya)
Margianti S.E., iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Indoneziya)
Minin V.V., kimyo fanlari doktori (Rossiya)
Tashqarayev R.A., texnika fanlari doktori (Qozog'iston)
Mo‘minov M.E., fizika-matematika fanlari nomzodi (Malayziya)
Mengliyev Baxtiyor Rajabovich, filologiya fanlari doktori, professor
Adizov Baxtiyor Rahmonovich, pedagogika fanlari doktori, professor
Abuzalova Mexriniso Kadirovna, filologiya fanlari doktori, professor
Amonov Muxtor Raxmatovich, texnika fanlari doktori, professor
Barotov Sharif Ramazonovich, psixologiya fanlari doktori, professor, xalqaro psixologiya fanlari akademiyasining haqiqiy a’zosi (akademigi)
Baqoyeva Muhabbat Qayumovna, filologiya fanlari doktori, professor
Bo‘riyev Sulaymon Bo‘riyevich, biologiya fanlari doktori, professor
Jumayev Rustam G‘aniyevich, siyosiy fanlar nomzodi, dotsent
Djurayev Davron Raxmonovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor
Durdiyev Durdimurod Qalandarovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor
Olimov Shirinboy Sharofovich, pedagogika fanlari doktori, professor
Qahhorov Siddiq Qahhorovich, pedagogika fanlari doktori, professor
Umarov Baqo Bafoyevich, kimyo fanlari doktori, professor
Murodov G‘ayrat Nekovich, filologiya fanlari doktori, professor
O‘rayeva Darmonoy Saidjonovna, filologiya fanlari doktori, professor
Navro‘z-zoda Baxtiyor Nigmatovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Hayitov Shodmon Ahmadovich, tarix fanlari doktori, professor
To‘rayev Halim Hojiyevich, tarix fanlari doktori, professor
Rasulov Baxtiyor Mamajonovich, tarix fanlari doktori, professor
Eshtayev Alisher Abdug‘aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Quvvatova Dilrabo Habibovna, filologiya fanlari doktori, professor
Axmedova Shoira Nematovna, filologiya fanlari doktori, professor
Amonova Zilola Qodirovna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Hamroyeva Shahlo Mirjonovna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Nigmatova Lola Xamidovna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Boboyev Feruz Sayfullayevich, tarix fanlari doktori
Jo‘rayev Narzulla Qosimovich, siyosiy fanlar doktori, professor
Rasulov Zubaydullo Izomovich, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Qurbonova Gulnoz Negmatovna, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Zaripov Gulmurot Toxirovich, texnika fanlari nomzodi, dotsent

https://buxdu.uz

MUNDARIJA *** СОДЕРЖАНИЕ *** CONTENTS		
ANIQ VA TABIIY FANLAR * EXACT AND NATURAL SCIENCES *** ТОЧНЫЕ И ЕСТЕСТВЕННЫЕ НАУКИ**		
Мадалиев М.Э., Наврузов Д.П., Жумаев Ж., Нуруллаев Ҳ.И.	Математическая модель извлечения мелких пылевых загрязнений из хлопка	4
Нормуродов Б.Р., Шамсиева М.Б.	Пилла ғумбагидан ёғловчи модда ажратиб олиш ва маҳсулот унумига таъсир этувчи омиллар тадқиқи	11
Mamatov T.Y.	Aralash uzluksizlik moduli bilan aniqlangan umumlashgan Hölder fazosida Volter o'ramasi ma'nosidagi operatorlar	17
Расулов В.Р., Кодиров Н.У., Исомаддинова У.М., Уринова К.К.	К теории трёхквантового поглощения поляризованного света на межзонных переходах в кристаллах	24
Kuchqarov B.X., Baxromov B.M., Xolmirzayev A.A.	Shishasimon yarimo'tkazgichlar va ular asosida plyonkalarning tuzilishi, xususiyatlari va olish usullari	30
Kuchqarov B.X., Ergashev M.A., Xolmirzayev A.A.	Kremniydagi dislokatsiya tarmoqlarini elektr va optik xususiyatlarni tekshirish usullari	42
Давлятова М. Б., Жамолитдинова Ю.Ш.	Мева-сабзавотларни қадоқлашда замонавий технологиялар	49
TILSHUNOSLIK * LINGUISTICS *** ЯЗЫКОЗНАНИЕ**		
Avezova N.S.	O'zbek tilida inson a'zolari harakatini ifodalovchi leksemalarning o'rganilishi	54
Ergashova R.T.	Linguaculturological features of military aviation terminology	58
Shayzakov G.M.	Study of tense category in different systemic languages	64
Sharipova G.B.	Til, madaniyat va folklorning o'zaro munosabati	70
Xamdamova G.X.	Maqollar tarjimasida milliy koloritni saqlash	79
Nuriddinova Sh.K.	Shaxs nomi bilan bog'liq tibbiy eponimlar	82
Safarov F.S.	O'zbek adabiy tilida I shaxs ma'nosini bildiruvchi vositalar ma'nodoshligi	88
Kholmakhmadova N.Kh.	Semantic peculiarities of homonymy and polysemy in the Uzbek and English languages	94

https://buxdu.uz

Алиева Н.Х.	Семантические особенности компьютерных фразеологических единиц и их классификация в разносистемных языках	98
Axmedova M.B.	Ingliz tilida “Spirituality” semantik maydoni: sotsial va lingvistik tahlil	106
Панжиев Н.П.	Сравнительный анализ согласных систем русского и узбекского языков с учётом влияния родного языка	111
Sobirova Z.R.	Mutual translation and its problems of touristic terms in English and Uzbek languages	118
Achilova R.A.	Allusive comparison	123
Yusupova D.Y., Furqatova M.	Ҳалима Худойбердиеванинг лексик-поэтик бирликлардан фойдаланиш маҳорати	126
ADABIYOTSHUNOSLIK * LITERARY CRITICISM *** ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ**		
Seytnazarova I.E.	Шеъриятда бадиий такрор ва унинг турлари	132
Murodova G.A.	Maxtumquli ijodida Ahmad Yassaviy g‘oyalarining badiiy in’ikosi	138
Boltayeva G.Sh.	Muxammas janrining nazariy asoslari	144
Bozorova V.M., Maqsudova M.U.	The term “American culture” in the literary works of world writers	147
Elmanova M.T.	Family dissonances in Joyce Carol Oates’ novel «Night. Dream. Death. Stars»	153
Davletova Sh.B.	The symbol of women in Muhammad Yusuf’s poetry	157
Qayumova N.M.	Dunyo sonetchiligiga nazar	163
Shomurodova S.G‘.	Aza marosimi qo‘shiqlarida motam kiyimlarining tasviri	168
Sharipov M.M.	O’zbek jamiyatida xizmatkor obrazi rivoji va adabiyotda “uchinchi odam” tushunchasi	173
Пардаева Д.Р.	Амир Тимур в русскоязычной литературе: комплексный анализ образа и его исторического контекста	177
Ўроқова Н.Ё.	Замонавий шеъриятда от образи талқини	181
Tashova D.S.	Individual badiiy shakllarga xos xususiyatlar	185
Safarova Z.T.	Tarbiya romanlarining badiiy adabiyotdagi genezisi va o‘rni	192
Shermamatova Sh.B.	Avaz O‘tarning “Yo‘q bo‘ling...” nomli g‘azalining talqinlari tahlili	197
Бабаев О.А.	Немисзабон мамлакатларда форс адабиёти	202
Yo‘ldosheva M.B.	Badiiy tarjimada portret tasvirining milliy-madaniy ta’sirini ifodalanishi	207

https://buxdu.uz

Ashurova G.N.	Болалар адабиётида Навоий ҳақидаги достон таҳлили	212
MATNSHUNOSLIK VA ADABIY MANBASHUNOSLIK * TEXTOLOGY AND LITERARY SOURCE STUDY *** ТЕКСТОЛОГИЯ И ЛИТЕРАТУРНОЕ ИСТОЧНИКОВЕДЕНИЕ**		
Olimova M.S.	“Huvaydoyi Chimyoniy” toshbosmasi matni xususida ayrim mulohazalar	217
“NAVOIY GULSHANI”		
Ахмедова Ш.Н.	Алишер Навоий хатларида шоир ички оламининг акс этиши ҳақида баъзи мулоҳазалар	223
FALSAFA VA HUQUQ, SIYOSATSHUNOSLIK * PHILOSOPHY, LAW AND POLITICAL SCIENCES *** ФИЛОСОФИЯ, ПРАВО И ПОЛИТОЛОГИЯ**		
Галимов Р.Р.	Геополитические аспекты формирования трансрегиональной модели безопасности в центральной и южной Азии	227
Бафоев Ф.М.	К вопросам эффекта политической воли и харизмы в современной мировой политике	233
Rasulov H.M.	Huquqiy madaniyat shakllanishining ijtimoiy-siyosiy omillari	237
Қудратов Б.А.	Демократик ислоҳотлар жараёнида демократик меъёр ва давлат ижтимоий муносабатлари динамикаси	241
PEDAGOGIKA * PEDAGOGICS *** ПЕДАГОГИКА**		
Allahverdiyev P.R.	Organization forms of military patriotic education in secondary schools	247
Karimova G.Z.	Dependence of the effectiveness of using proverbs in education on the ethno-pedagogical training of teachers	251
SAN’AT * ART *** ИСКУССТВО**		
Hajiyeva S.Z.	Absheron motifs in the works of people’s artist Jalil Huseynov	258
Ismayilov J.V.	The development of realism traditions in Azerbaijan painting	262
IQTISODIYOT * ECONOMICS *** ЭКОНОМИКА**		
Махаммадалиева М.Ш.	Влияние электронной коммерции на изменение облика розничной торговли в Узбекистане	267

https://buxdu.uz

UDK 32.323 (323.2)

HUQUQIY MADANIYAT SHAKLLANISHINING IJTIMOIY-SIYOSIY OMILLARI

Rasulov Hakim Mamanovich,
Termiz davlat pedagogika instituti kafedra mudiri,
siyosiy fanlar nomzodi, dotsent
rhm1973@mail.ru

Annotatsiya. *Maqolada huquqiy madaniyatning jamiyat va davlat hokimiyat organlari o‘rtasidagi munosabatlarda namoyon bo‘lishi, fuqarolarning ijtimoiy, siyosiy, huquqiy faoligi va madaniy yuksalishiga xizmat qiluvchi omillarga e’tibor qaratilgan.*

Shuningdek, huquqiy madaniyatning bugungi darajasiga tanqidiy baho berib, faqatgina qonunlarni o‘rgatish va javobgarlik bilan qo‘rqitish orqali qonun ustuvorligiga va taraqqiyotga erishib bo‘lmasligini nazariy asoslash, aholining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirishning innovatsion usullaridan, ta’sirchan vositalaridan samarali foydalanish masalari tahlil qilingan.

Kalit so’zlar: *Siyosiy-huquqiy voqelik, siyosiy-huquqiy tizim, huquqiy madaniyat, huquqiy ongi, jamiyat, davlat, hokimiyat, ijtimoiy, siyosiy, huquqiy, qonun, qonun ustuvorligi.*

СОЦИАЛЬНО-ПОЛИТИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ ФОРМИРОВАНИЯ ПРАВОВОЙ КУЛЬТУРЫ

Аннотация. *В статье акцентируется внимание на проявлении правовой культуры в отношениях общества и органов государственной власти, на факторах, обслуживающих общественно-политическую, правовую активность и культурный рост граждан.*

Также, критически оценивая современный уровень правовой культуры, теоретически обосновывая тот факт, что правопорядок и развитие не могут быть достигнуты только преподаванием законов и угрозой ответственности, рассматриваются вопросы эффективного использования инновационных методов и действенных средств повышения правосознания. и культура населения были проанализированы.

Ключевые слова: *Политико-правовая реальность, политико-правовая система, правовая культура, правосознание, общество, государство, власть, социальное, политическое, право, право, правовое государство.*

SOCIO-POLITICAL FACTORS OF THE FORMATION OF LEGAL CULTURE

Abstract. *The article focuses on the manifestation of legal culture in relations between society and public authorities, on the factors serving the socio-political, legal activity and cultural growth of citizens.*

Also, critically evaluating the current level of legal culture, theoretically substantiating the fact that law and order and development cannot be achieved only by teaching laws and the threat of responsibility, the issues of effective use of innovative methods and effective means of raising legal awareness are considered. and the culture of the population were analyzed.

Keywords: *Political and legal reality, political and legal system, legal culture, legal consciousness, society, state, power, social, political, law, rule of law.*

Kirish. Yangi O‘zbekiston siyosiy tizimini modernizatsiya qilish va yangilash sharoitida jamiyat barcha qatlamlarining huquqiy madaniyatini oshirish muammolari yanada ahamiyatlidir. Huquqiy madaniyat fenomeni ijtimoiy va tarixiy ahamiyatga ega bo‘lib, uning “rivojlanish qonuniyatlari doimiy tarzda ma’lum tarixiy davrning indikatori bo‘lgan” [1]. Jamiyatda huquqiy ong va madaniyatni shakllantirish hamda yuksaltirish bilan bog‘liq islohotlar yangi O‘zbekiston siyosiy-huquqiy tizimini yanada mustahkamlanib borayotganidan, respublikamizda demokratik, huquqiy, dunyoviy davlat qurish jarayoni jadal rivojlanayotganidan dalolat beradi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi 2019-yil 9-yanvardagi PF-5618-sonli Farmonining qabul qilinishi O‘zbekistonda bu boradagi muammolarning nechog‘lik dolzarbligini ko‘rsatadi.

https://buxdu.uz

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada o‘rganilayotgan muammo ilmiy tadqiqotning siyosiy va qiyosiy tahlil, mantiqiylik, ilmiylik va xolislik metodlari asosida yoritilishiga e’tibor qaratildi.

Tahlil va natijalar. Mamlakatda amalga oshirilayotgan huquqiy islohotlarning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan fuqarolarning huquqiy madaniyati darajasiga bog‘liq bo‘ladi. Huquqshunos olim A.Saidovga ko‘ra jamiyatda “konstitutsiya va qonunni hurmat qilishga, inson huquqlari madaniyatini tushunishga uni hal etishning mumkin bo‘lgan barcha yo‘llarini topa olishga asoslangan yuridik dunyoqarash shakllangan bo‘lishi kerak” [2;B.8]. Yana bir o‘rinda esa inson huquqlari ta’limi – huquqiy tarbiyaning muhim jihat bo‘lib, “huquqiy madaniyat va huquqiy ong shakllanishi uning mahsuli hisoblanadi” [2; B.8] deb ta’riflaydi.

Tadqiqotchi E.Kadirov huquqiy madaniyatni jamiyat huquqiy va siyosiy tizimi bilan bog‘liq hodisa sifatida tahlil qilib, uning mohiyatini ochib berishga harakat qiladi. Unga ko‘ra “huquqiy madaniyat bir tomondan huquq va siyosat bilan bog‘liq bo‘lsa, ikkinchi tomondan, inson, uning tafakkuri va dunyoqarashi hamda u yashayotgan ijtimoiy muhit bilan bog‘liq”dir [3]. Yuridik fanlari doktori X.Mamatov jamiyat hayotida huquqiy madaniyat namoyon bo‘lishining uch darajasini odatdagi (kundalik), kasbiy va nazariy darajalarda farqlagan. Tadqiqotchi o‘z qarashlarida “odatdagi darajada huquqiy madaniyat – odamlarning kundalik xayoti doirasi bilan chegaralanadi. Odamlar undan o‘z kundalik faoliyatida subyektiv huquqlarni ruyobga chiqarish, yuklatilgan vazifalarni bajarishda foydalanadilar. Kasbiy darajada huquqiy madaniyat – o‘z kasbiy faoliyatini amalga oshirish jarayonida yuridik faoliyat bilan doimiy shug‘ullanuvchi shaxslarga xosdir. Mazkur daraja huquqini bilish va huquqiy muammolar, huquqiy faoliyatning maqsad va vazifalarini tushunish darajasining yuqoriligi bilan tavsiflanadi. Nazariy darajada – bu nafakat huquqni bilish, balki uning teran xossalari va qadriyatlari, amal kilish mexanizmi, huquqning samaradorligiga ta’sir kursatuvchi omillarni tushunishning yuksak darajasidir” [4] deb ifodalaydi.

Lekin bugungi siyosiy-huquqiy voqelik, ayniqsa, yangilanayotgan O‘zbekiston siyosiy-huquq tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar, jumladan, inson huquq va manfaatlarning ustuvorligi, davlat boshqaruv tizimi liberallashuvi va ochiqlik siyosati, jamoatchilik nazoratining shakllanishi bilan bog‘liq jarayonlar mamlakatimizda jamiyatning barcha qatlamlarida huquq madaniyatining yuksak darajada shakllanishini taqazo qilmoqda. Ya’ni, huquqiy madaniyat kundalik faoliyatimizdan professional hayot tarzimizga aylanishi kerak.

Huquqiy madaniyat mazmunini bir tomondan, jamiyatda qonuniylik va uning ustuvorligi, huquqiy faoliyatning rivojlanganlik holati, qonun hajjatlarining mukammaligi, ikkinchi tomondan esa, jamiyat huquqiy ongining yuksakligi darajasini ifoda etuvchi huquqiy bilimlar, aholining huquqdan xabardorlik darajasi, huquqiy qadriyatlarning shakllanganlik holati kabilar tashkil qiladi.

Shu ma’noda, huquqiy madaniyat ko‘p qirrali va murakkab hodisadir. Fuqarolarning qonunlarni bilmasligi yoki ularni real hayotiy vaziyatlarda qo‘llay olmasligi aholining huquqiy ongi va madaniyatini shakllantirish va yuksaltirish borasida tizimli va maqsadli jarayon bilan bog‘liqdir. Huquqiy madaniyat nazariyotchilari U.Tadjixanov, A.Saidovga ko‘ra “huquqiy madaniyat deganda, jamiyatda qaror topgan huquqiy tizimning darajasini, xalqning bu huquq tizimidan xabardorlik darajasini, fuqarolarning qonunga bo‘lgan hurmati, huquqiy normalarning ijro etish darajasi, huquqqa rioya qilmaganlarga murosasiz bo‘lish, qonunga itoatkorlik darajasini tushunamiz” [5]. Shu ma’noda huquqiy madaniyatning shakllanishi uchun zarur bo‘lgan komponentlarga: a) shaxsning huquqiy ongi; b) jamiyatdagi huquqiy munosabatlar; v) huquq-tartibot tizimi; g) qonuniylik kabi davlat va huquq sohasidagi boshqa faoliyat turlarini kiritish mumkin.

Jamiyatda qonuniylik, qonun ustuvorligining eng muhim shartlaridan biri – fuqarolarda qonunga hurmat ruhining shakllanishi, tarbiyalashi, qonunlarni puxta bilishi, yuksak huquqiy ong va madaniyatga ega bo‘lishidan iborat. To‘g‘ri, mamlakatda amalda bo‘lgan barcha qonunlarni bilishning iloji yo‘q, lekin uning asosiy qoidalari va umumiy mazmunidan xabardor bo‘lish huquqiy ong va huquqiy madaniyat mavjudligining eng muhim zaruriyatidir. Davlat boshqaruvi va jamiyat taraqqiyotida vujudga kelishi mumkin bo‘lgan turli muammolarni hal qilish yoki ularning oldini olish uchun, **eng avvalo**, fuqarolar o‘z huquqlarini bilishi va ularni yuqori darajada himoya qilishi zarur. **Ikkinchidan**, har bir fuqaro nafaqat o‘z huquqlarini, balki burchlarini ham bilishi kerak. **Uchinchidan**, har bir fuqaro uchun nafaqat o‘z manfaatlarini himoya qilishi, balki boshqa odamlarning huquq va erkinliklarini ham hurmat qilishi juda muhimdir.

Fuqarolarning huquqiy madaniyatini oshirishning asosiy vazifasi jamoatchilikda qonunlarga ijobiy munosabatni shakllantirish, ularning huquq va burchlarini bilishdan iboratdir. Mamlakat va jamiyatda yangilanishlar yuz berishi aholining ongi va tafakkurini siyosiy-huquqiy ongini va madaniyatini yuksaltirmasdan amalga oshirib bo‘lmaydi.

https://buxdu.uz

Huquq ijtimoiy hodisadir. U boshqa ijtimoiy hodisalar kabi jamiyatdan muayyan munosabatlarni talab qiladi. Huquq ijtimoiy hodisa sifatida fuqarolarning qonunga nisabatan ijobiy yoki salbiy munosabatlarida namoyon bo‘ladi. Huquqga nisbatan bunday erkin munosabat sivilizatsiyalashgan, jamiyat hayotida demokratik munosabatlar qaror topgan mamlakatlarda mavjud bo‘ladi. Aksincha, huquqning ijtimoiy mohiyati jamiyatda qonun ustuvorligi amalda davlat tomonidan to‘la kafolatlanmagan yoki inson huquq va erkinliklarini buzuvchi antidemokratik huquqiy tizimga ega mamlakatlarda kuzatiladi. Shu jihatdan huquqiy madaniyatning ijtimoiy mohiyati jamiyatda qonun ustuvorligining ta’minlanish, inson huquq va erkinliklarining huquqiy kafolati holatiga qarab, bir tomondan, ijtimoiy munosabatlardagi g‘oyalar va tasavvurlarda, ikkinchi tomondan, jamiyatdagi hissiyotlar, ya’ni, kayfiyat, odatlar va his-tuyg‘ularda ifodalanadi.

Aksariyat tadqiqotlarda huquqiy madaniyat elementlari sifatida huquq, huquqiy munosabatlar, davlat organlari, huquqni himoya qiluvchi va amalga oshiruvchi tashkilotlar, huquqiy ong va huquqiy xulq-atvor alohida ajratilgan. Rossiyalik tadqiqotchilar V.I. Kaminskaya va A.R. Ratinov huquqiy madaniyat kishilar ongi va xulq-atvorida aks etishi bilan bog‘liq ideal elementlar tizimi ekanligini ko‘rsatdi [6]. Yana bir rus olimi V.P.Salnikov qarashlariga ko‘ra huquqiy madaniyatning tarkibiy elementlari xulq-atvor standartlari bo‘lgan: qonun, huquqiy ong, huquqiy munosabatlar, huquq-tartibot, subyektlarning qonuniy faoliyatlarini tashkil qiladi [7;C.36-38]. Muallif yana bir o‘rinda “huquqiy madaniyatning mazmun-mohiyatini uning mantiqiy tuzilishini yoritib bermasdan turib, to‘liq ifodalab bo‘lmaydi”, [7;C.55] deb ta’kidlaydi. Biroq tadqiqotchi N.M.Keyzerovning fikricha, huquqiy madaniyatning mohiyatini aniqlash uchun bu elementlar yetarli emas, ularga huquq va huquqiy xulq-atvorga siyosiy baho berish mezonlarini qo‘shish zarur [8]. Tadqiqotchi A.Ye.Skobelyevga ko‘ra jamiyat huquqiy madaniyatining eng muhim elementi huquqiy hujjatlarning butun tizimining rivojlanish darajasidir [9]. Bularga qo‘shimcha sifatida qozog‘istonlik tadqiqotchi A.S.Ibraneva “huquqiy madaniyat tarkibiga huquqiy mentalitet ham kiritilishi kerak”ligini ta’kidlagan [10;C.69]. Darhaqiqat, milliy-ma’naviy qadriyatlarga asoslangan siyosiy-huquqiy mentalitet jamiyatda siyosiy-huquqiy madaniyatning yuksalishiga xizmat qiladi.

Huquqiy madaniyat muammolari tahliliga bag‘ishlangan ilmiy manbalardagi qarashlarni umumlashtirib uning quyidagi tuzilmalari: 1) huquqiy ong; 2) qonun; 3) huquqiy munosabatlar; 4) huquq-tartibot; 5) subyektlarning qonuniy faoliyati; 6) davlat-huquqiy institutlar; 7) huquqshunoslik; 8) huquqiy hujjatlar ajratilib ko‘rsatish mumkin.

Huquqiy madaniyat shakllanishining yuqorida ta’kidlangan parametrlarni inkor qilmagan holda shuni ta’kidlash lozimki, eng avvvalo, davlat va huquq munosabatlarini tartibga solib olish kerak. Prezident farmonida ta’kidlanganidek, “jamiyatda qonunlarga hurmat ruhini qaror toptirish – demokratik huquqiy davlat qurishning garovidir!” [10;C.69] degan hayotiy g‘oyani mustahkamlash amaliy ishga aylanishi kerak. Ya’ni, siyosiy-huquqiy munosabatlarda davlat va uning tegishli vakolatli organlari faoliyatida huquqiy nigilizmni bartaraf etish kerak. Ya’ni, mansabdor shaxslar faoliyatining qonuniyligi, ayniqsa, huquqni muhofaza qiluvchi organlar mas’ullarining huquq normalarini mensimasligi, ularga nisbatan hurmatsizlik munosabati, ba’zi holatlarda rahbar kadrlarning so‘zi qonunga aylanib, amaldagi huquqiy normalarning inkor qilinishi holati juda ko‘p uchraydi. Qonunchilikda o‘z aksini topgan masalalar qanchalik mantiqiy va real hayotimizga asosli bo‘lmasin, ko‘pincha amalda ishlamasligi, aksariyat hollarda jamiyat a’zolari tomonidan huquqga ishonmaslik yoki davlat hokimiyati organlari faoliyatidagi «huquqiy munosabatlarni» qabul qila olmaslik tuyg‘ularini shakllantiradi. O‘z navbatida tegishli vakolatli organlar bilan jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarda huquqiy bo‘shliqning paydo bo‘lishiga olib keladi. Tan olish kerakki, faqatgina qonunlarni o‘rgatish va javobgarlik bilan qo‘rqitish orqali qonun ustuvorligi va demokratik taraqqiyotga erisha olmasligimiz inkor qilib bo‘lmas haqiqatga aylanib ulgurdi. Shu ma’noda, jamiyatda huquqiy madaniyatning shakllanishi real hayotda huquqni qanday bo‘lsa shunday ishlashiga bog‘liq bo‘lib qolmoqda.

Buning uchun esa nazarimizda milliy huquqiy madaniyat tizimi shakllanishiga **birinchidan**, huquqiy normalarning jamiyatga ta’sirini kuchaytirish va hamma joyda bir xilda ishlamayatganligi bilan bog‘liq holatlarning tub ildizlarini o‘rganish; **ikkinchidan**, qonunning kishilar xulq-atvoriga ta’sir etish usullarini bilish, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy, psixologik va boshqa omillar bilan bog‘liq bo‘lgan usullarni ishlab chiqish; **uchinchidan**, davlat ijroiya organlari faoliyatining huquqga mosligining ta’minlash; **to‘rtinchidan**, mansabdor shaxslarning, davlat apparati va jamoat tashkilotlarining hamjihatlikda huquqiy madaniyatni yuksaltirishga harakat qilish zarur.

Buning uchun davlat va jamiyat boshqaruvida huquqiy madaniyatning barcha unsurlaridan foydalangan holda, tegishli organlarning huquqiy maqomi bilan bir qatorda boshqaruv jarayonini ham

https://buxdu.uz

tartibga solishi hamda ular faoliyatining barqaror va maqbul rejimini yaratishi zarur. “Qonun talablarini bajarmaslik bilan bog‘liq har bir holat yuzasidan aniq huquqiy ta’sir choralarini ko‘rish kerak” [11; B.161].

Ijro organlari tizimida asossiz qarorlar takrorlanmasligi kerak. Bu masalalar boshqaruv kadrlarining huquqiy tayyorgarligi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, professional vazifalaridan tashqari huquq asoslarini ham juda chuqur o‘zlashtirishga erishishi lozim. Chunki amaldagi qonunlarni to‘g‘ri qo‘llash ana shu bilimga bog‘liq. Bunday holda, noto‘g‘ri qarorlar qabul qilinishiga yo‘l qo‘yilmaydi. “Odamlar hamma narsaga chidashi mumkin, lekin adolatsizlikka chiday olmaydi” [11; B.193].

Xulosa. Jamiyatni modernizatsiya qilish va yangilash sharoitida huquqiy madaniyat shakllanishiga ta’sir qiluvchi ijtimoiy-siyosiy omillar tahlili yuzasidan quyidagi nazariy xulosaga kelishi mumkin:

Birinchidan, fuqarolarda huquqiy bilimlar, ong va madaniyatning yanada yuksak darajada bo‘lishi nafaqat ularning o‘ziga, balki ijtimoiy, siyosiy munosabatlar tizimida ro‘y berayotgan o‘zgarishlarga ham bog‘liq.

Ikkinchidan, huquqiy madaniyat yuksalishi uchun davlat va jamiyat boshqaruv tizimini, jumladan ijro va huquq-tartibot organlari faoliyatining legitimligini oshirish, milliy taraqqiyotimizga to‘siq bo‘layotgan turli me’yorlarni ham tartibga solish lozim.

Uchinchidan, har bir fuqaroga huquqiy madaniyat amaldagi qonunlarda belgilangan javobgarlikdan qo‘rqib emas, balki, uni himoya qilish uchun, o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish uchun, konstitutsiyaviy majburiyatlarini sidqidildan bajarish uchun ham kerak bo‘ladi.

To‘rtinchidan, yangilanayotgan O‘zbekiston siyosiy-huquqiy tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar «yuksak huquqiy madaniyat – mamlakat taraqqiyoti kafolati» degan konseptual g‘oya asosida «shaxs – oila – mahalla – ta’lim muassasasi – tashkilot – jamiyat» prinsipi bo‘yicha tizimli tashkil etilishiga erishish kerak.

Xulosa qilib aytganda, jamiyat huquqiy madaniyatning shakllanishi tizimli jarayon bo‘lib, muammoning ijtimoiy-siyosiy omillari nafaqat fuqarolarning huquqga munosabati balki ijro va huquq-tartibot sohalari legitimligi bilan uzviy bog‘liqdir.

ADABIYOTLAR:

1. Маматюсупов Б.У. Ҳуқуқий маданият эндоген хусусиятларининг шахс ижтимоий фаоллигига таъсири. Фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. –Тошкент, 2018, - Б.13.

2. Саидов А. Ҳуқуқий таълимни ривожлантиришнинг замонавий тенденциялари // Ижтимоий фикр –инсон ҳуқуқлари, 2019, №4 (88).

3. Кадиров Э.О. Ёшларнинг ҳуқуқий ва сиёсий маданиятини юксалтириш масалалари. Юридик фанлар доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. –Тошкент, 2019, -Б. 40.

4. Маматов Х. Ҳуқуқий маданият ва Ўзбекистонда фуқаролик жамиятини шакллантириш муаммолари. – Тошкент, Yurist-media markazi, 2009. –Б.70.

5. Таджиханов У. Саидов А. Ҳуқуқий маданият назарияси. 1-том, - Тошкент, «Ўзбекистон республикаси ИИВ академияси» 1998, -Б. 11.

6. Каминская В.И., Ратинов А.Р. Правовое сознание как элемент правовой культуры // Правовая культура и вопросы правового воспитания. - Москва, 1974. Стр.43.

7. Сальников В.Л. Социалистическая правовая культура // Методологические проблемы. - Изд-во Саратовского университета, 1989.

8. Кейзеров Н.М. Политическая и правовая культура // Методологические проблемы. М., 1983. Стр. 115.

9. Скобелев А.Е. Понятие, структура и общая характеристика правовой культуры // Известия Сартовского университета 2009 Т.9 Сер. Философия. Психология. Педагогика, вып.1. Стр. 112.

10.Ибраева А.С. Структура правовой культуры // Реформа, № 4/2002.

11.Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. Т.1. – Тошкент, Ўзбекистон НМИУ. 2017.

https://buxdu.uz